



SUD ISHLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING AHAMIYATI JIHATLARI

Toshmatova Dilshodaxon Akbarali qizi

Toshkent shahar yuridik texnikumi

Davlat huquqiy faoliyat yo'nalishi 2 kurs talabasi

Qonunchilik bazasini har tomonlama mustahkamlash va Qonunlarni so'zsiz ijro etish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, demokratik huquqiy davlatni rivojlantirish, xususiy mulk va tadbirkorlik taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash hamda uning ishonchli himoya qilinishini ta'minlashda prokuratura organlarining roli katta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoye[1]

Annotasiya: Ushbu maqolada qonuniylikni ta'minlashda sudlarning ahamiyati hamda sud ishlarini ko'rish jarayonida prokurorning ishtiroki qanchalik muhim ekanligi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Prakuror, prokuror nazorati, sud ishlari, qonuniylik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar.*

Ko'pchilik prokurorlarni sudlarda qoralovchi vazifasini bajaradi degan fikrda bo'ladi. Aslida esa prokuratura O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun tuzilgan. Prokuror so'zining tub ma'nosi ham lotinchadan tarjima qilinganda "g'amxo'rlik qiluvchi" degan ma'noni anglatadi. Demak, prokurorning suddagi asosiy vazifasi ham shu qonuniylikni tiklanishiga ko'maklashish hisoblanadi. Nega ko'maklashadi degan savol tug'ilishi mumkin. Javob sifatida shuni aytishim mumkinki, O'zbekiston Respublikasida odil sudlovni faqat sudlar amalga oshiradi. shu nuqtai nazardan prokuratura sud ishlarini ko'rib chiqayotganda boshqa ishtirokchilar singari faqat ko'maklashadi. Shu o'rinda prokuratura haqida qisqacha to'xtalib o'tsam:

Prokuratura tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, birinchi prokuratura XIV asrda Fransiyada davlat tomonidan vakolat berilgan mansabdor shaxs sifatida vujudga kelgan va uning vazifalari hozirgi kundagidan ko'p ham farq qilmagan. Asosiy farqli jihati prokurorlar asosan tergov, jinoyat ishlarida faolroq faoliyat olib borgan, huquqning xususiy tarmoqlarida esa doimgidek sevilist advokatlarning roli muhim bo'lgan. Bu an'ana hozirgi kunga qadar deyarli saqlanib qolgan. Ya'ni O'zbekiston Respublikasida jinoyat, fuqarolik, ma'muriy hamda iqtisodiy sud ishlari mavjudligini oladigan bo'lsak, prokuror eng ko'p ishtirok etadigan soha bu jinoiy ishlar hisoblanadi. Buni bevosita prokurorlarning tergov funksiyasi yoki insonlarning sog'lig'i, hayoti birlamchi masala ekanligi bilan bog'lashimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida hokimiyatlar bo'linishi prinsipi amal qiladi. Va shu asosga ko'ra O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat - Oliy Majlis, ijro etuvchi hokimiyat - Vazirlar Mahkamasi hamda sudlovni amalga oshiruvchi - Sud hokimiyati mavjud. Ularning asosiy vazifasi ham nomiga mutanosib qonunchilikni ishlab chiqish, ijrosini ta'minlash, shuningdek, qonunchilik buzilgan vaqtda uni qayta tiklash uchun davlat



majburlov kuchi-sud hisoblanadi. Bundan tashqari davlatning huquqiy sohasini boshqarib, tartibga solib turuvchi bir qator organlar borki, ular huquqni muhofaza qiluvchi organlar deb yuritiladi. Ushbu organlar sirasiga sud, adliya, prokuratura, ichki ishlar va boshqa bir qancha organlarni kiritishimiz mumkin. Ahamiyatlisi shundan iboratki, ularning aksariyat qismi ijro hokimiyati tarkibidagi organlar sanaladi. Faqatgina sudlar sud hokimiyati tarkibida va prokuratura hech qaysi hokimiyat tarkibida emas. Ya'ni prokuratura organi mavjud uchala hokimiyatdan birining tarkibiga kirmaydigan organdir. Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysungan holda amalga

oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi[2]. Prokuratura markazlashtirilgan tizim hisoblanib, unga bosh prokuror rahbarlik qiladi.

Davlatlar paydo bo'lgan davrdan boshlab, uning eng muhim va mavjudligining asosiy elementi imperativlik xususiyati mavjud bo'lgan va bu kuchni turli organlar orqali amalga oshirgan. Bulardan eng keng tarqalgan shakl sudlar orqali qonun ijrosini ta'minlash hisoblanadi. Sudlar ma'lum organ yoxud ma'lum bir hokimiyat nomidan ish yuritmaydi, balki ular bevosita Davlat nomidan ish yuritadi. Shu sababli sudyalar tomonidan qabul qilingan har bir qaror O'zbekiston Respublikasining qarori hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida sud uchun yuksak mas'uliyat demakdir. Shu sababli ham har bir qaror qabul qilinishi asnosida sudyalar tomonidan qonuniylik, adolat, tenglik, shaffoflik tamoyillariga qat'iy rioya qilinishi lozim. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: "Sud binosiga kelgan har bir inson O'zbekistonda adolat borligiga ishonib chiqib ketishi kerak [3]".

Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy: odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilgan ekan, sudlarda barcha ishtirokchilar teng huquqli ekan unda prokurorning sudga ishtirokini ta'minlash muhimmi? Ha albatta, bu sudlarda ayrim ishlar yuzasidan qonuniy qaror chiqarilishi uchun o'ta muhim bo'lgan masaladir. Buning asosini esa quyidagicha ko'rib chiqamiz:

Birinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi har bir organ qonuniylikni ta'minlash uchun o'zaro hamroqlik ta'moyilida faoliyat yuritmo'g'i lozim. Prokurorning sud ishlarida qatnashishini ham hamroqlikning bir ko'rinishi deb qabul qilishimiz mumkin. Bunda prokuror ishning samarali, tez va qonuniy hal bo'lishi uchun o'zida mavjud axborotlarni sudga taqdim qiladi va shu orqali odil sudlovga ko'maklashadi.

Ikkinchidan, prokuror asosiy vazifasi hisoblangan fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlash uchun ularning nomidan sudga da'vo kiritadi. Ya'ni shunday holatlar uchrab turadiki, fuqarolarning huquqlari buzilgan bo'ladi. Ammo ularning bevosita o'zlari murojaat qilishga imkoniyatlari mavjud bo'lmaydi. Shunday hollarda prokuratura fuqaro manfaatini ko'zlab sudga da'vo kiritib vakil sifatida qatnashadi.

Uchinchidan, prokuror ayrim ishlarda davlat manfaatini himoya qilish uchun qatnashadi. Negaki sud bu ikki tomon o'rtasidagi hakam hisoblanadi. Shuning uchun ham sud davlat tomonidan tashkil etilgan bo'lsada, o'zi uni himoya qila olmaydi. Agar shunday bo'lganda, sudning hakamlilik maqomi yo'qolib, tarafdardan biriga aylanib qolgan bo'lar edi.

Prokuratura organlarining sudlardagi ishtirokini ta'minlash qanchalik muhim bo'lsa, ayrim ishlarda prokuror qatnashmasligini ta'minlash ham shunchalik muhim hisoblanadi.



Negaki, shunday masalalar mavjudki, ularda prokuror ishtiroki rasmiyatchilikning bir ko'inishi yoki sudga bosim o'tkazishning bir shakli bo'lib qoladi. Bu holat natijasida O'zbekiston SSR sudlari, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin prokuratura sohasi isloh qilinishidan oldingi davrlarda sudyalarda aziyat chekishgan. Bunda nafaqat sudyalarda, balki oddiy xalqning yo'qotishi anchayin katta bo'lgan. Chunki o'sha vaqtlarda, aniqroq qilib aytadigan bo'lsam 2009-2010-yillargacha bo'lgan vaqt oralig'ida prokurorlar sud qarorlari ijrosini to'xtatib turishlari, shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek boshqa protsessual majburiy choralarni qo'llash uchun sanksiya berish huquqlari mumkin bo'lgan. "Sudlar to'g'risida"gi qonunda esa "hech bir shaxs sudning qarorisiz qamoqqa olinishi mumkin emas" degan norma kiritilgan bir vaqtda, qonunlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni keltirib chiqarar edi. Bundan tashqari prokuror manfaatini ko'zlab qatnashayotgan tomonning ishda muvaffaqiyat qozonish koefitsiyenti anchayin yuqori bo'lgan. Buning ustiga prokurorlar istalgan ishlarda o'z tashabbusi bilan qatnashish huquqiga ega edilar. Bu esa sudlar faoliyatiga aralashuvni keltirib chiqarishga yaratilgan imkoniyat edi. Shu yo'l bilan sudyalarning faoliyatiga keskin aralashish, sudlar mustaqilligini cheklash mumkin edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi PF-6034-sonli «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga asosan prokurorlarning o'z tashabbusi bilan fuqarolik va iqtisodiy ishlarni ko'rishda qatnashishi bekor qilindi hamda ushbu ishlarni ko'rishda prokuror ishtiroki cheklandi. Bu esa sudlar mustaqilligini ta'minlash uchun katta qadamlardan birib bo'ldi deyishimiz mumkin. Jinoyat ishlarini ko'rishda esa prokurorlar davlat ayblovchisi sifatida qatnashadi va yuqoridagi Farmon qabul qilingunga qadar ayblov noto'g'ri ekanligi sudda isbotlangan taqdirda ham prokurorlar ayblovdan voz kechishmagan. Ayblovdan voz kechishganda ham sud tomonidan qilinishi lozim bo'lgan holat belgilanmagan edi. Jumladan, 2018-2019-yillar davomida 192 ta jinoyat ishi bo'yicha 307 nafar shaxs oqlangan bo'lsa-da, hech qaysi holatda prokuror ayblovdan voz kechmagan [4]. O'tgan yillarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu kabi statistikalar yuzlab topiladi va bu statistikalar shuni ko'rsatadiki, prokurorlar jinoyat ishini ko'rish chog'ida shaxsning haqiqatda jazoga loyiq huquqbuzarlik sodir etganligini aniqlash va adolat uchun kurashishdan ko'ra, o'zining ayblovini isbotlash uchun qat'iy turib olganlarini ko'rish mumkin.

Prezidentning 2020 yil 24 iyuldagi PF-6034-sonli Farmoni asosida ushbu holat ham isloh qilinib, endilikda davlat ayblovchisi ayblovdan voz kechgan taqdirda rehabilitasiya asoslariga ko'ra jinoyat ishini tugatish tizimi ishlamoqda. Ushbu ma'lumotlarni keltrigan holda prokuror ishtiroki sud mustaqilligini cheklaydi degan fikrdan yiroqdamiz. Shunchaki prokurorning sud ishlaridagi ishtiroki har tamonlama ijobiy natija hosil qiladigan va xalqaro standartlarga mos bo'lishi tarafdorimiz. Prokurorlarning ishtiroki qanchalik muhim ekanligini birgina 2020-yilning oktabrigacha bo'lgan vaqtda ma'muriy sudlarda ko'rilgan 10.857 ta ishlarda bevosita prokurorlar ishtiroki ta'minlanib, prokuror protestlari asosida 509 ta noqonuniy sud qarorlari qonunga muvofiqlashtirilganligidan ham ko'rishimiz mumkin [5].



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, birinchidan, O'zbekistonda prokuraturaning Fransiya, Germaniya, Ispaniya modeliga o'xshab sud tarkibida [6] emasligi O'zbekiston uchun samarali deb hisoblayman. Negaki, nazarimda sud va prokuratura birlashgan taqdirda o'zaro tanqidiy muhit yo'qolib, birlik manfaati uchun harakat kuchayib ketgan bo'lardi.

Ikkinchidan, "Sud hokimiyati - bu sudlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiga so'zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo'jalik ishlarini va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha vakolatidir [7]". Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, sudlar faoliyatida mustaqil bo'lishlari lozim.

Uchinchidan, prokurorning sud ishlaridagi ishtiroki muhim holat hisoblanib, odil sudlovga ko'maklashuvchi vosita bo'lib hisoblanadi. Ammo sud ishlarini ko'rish chog'ida prokuror uchun alohida imtiyoz va vakolatlar berilmasligi lozim. Bu sudlar ishiga bevosita aralashuvni kuchaytirib yuborish ehtimoli katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mualliflar jamoasi. Prokuror nazorati. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2019. – 190 bet.
2. "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 28.07.2021 yildagi O'RQ-703-son. <https://lex.uz/docs/-5534923>
3. "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.2001 yildagi 257-II-son. <https://lex.uz/ru/docs/-106197>
4. O'zbekiston Oliy Sudi Plenumi qarorlari to'plami. 1991-1997. - T.: Sharq. 1997. 5-6 betlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi PF-6034-sonli «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.
6. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning prokuratura xodimlari bilan uchrashuvi. <https://president.uz/oz/lists/view/178>.
7. Review.uz; Shavkat Mirziyoyev sudlarga prezident talabini qo'ydi. <https://review.uz/uz/post/shavkat-mirziyoyev-sudlarga-prezident-talabini-qoydi>